

TOVLAMACHILIK JINOYATINI TERGOV QILISH BORASIDAGI AYRIM XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI

Usmonaliyev Najmiddin Qo'shboq o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

"Tergov faoliyati" kafedrası o'qituvchisi

Salohiddinov Muhammadabbos Umidullo o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 3-bosqich 326-guruh kursanti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15720490>

Annotatsiya

Maqolada tovlamachilik bilan bog'liq jinoyatlarini oldini olishni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari tahlil qilingan. Muallif tomonidan tovlamachilikning sodir etilish sabablari zanjirida jinoyatchi bilan bir qatorda jabrlanuvchi shaxsiga va hayot tarziga xos individual (viktim) xususiyatlar o'rni yuqoriligini inobatga olgan holda mazkur xislatlar xos bo'lgan toifadagi shaxslarning tovlamachilik jinoyatini sodir etgan shaxslar bilan tergov harakatlarini olib borish, shuningdek, tovlamachilik jinoyatlarini tergov qilish va tovlamachilik jinoyatining xorijiy davlatlar jinoyat kodekslarida qanday jazo belgilanganligi haqida so'z yuritilgan hamda taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar

Tovlamachilik, tergov harakati, jinoyat, xorijiy tajriba, jazo tizimi, javobgarlik tushunchasi, javobgarlik masalalari.

Bugungi kunda yuzaga kelayotgan xavf-xatar va tahdidlar, avvalo, qo'shni mamlakatlarda bo'lib turgan nizoli holatlar, shuningdek maishiy turmush sharoitida sodir etilayotgan shaxsning hayotiva sog'ligi, davlat va jamoat mulki, jamoat xavfsizligi, boshqaruvning belgilangan tartibiga qarshi qaratilgan jinoyatlarning salmog'i oshib borayotgan bir vaqtda tovlamachilik jinoyatining ham sodir etilishi hamda latentlashuvi bilan bog'liq muammolarning kuchayib borayotganligi jamoat xavfsizligini ta'minlashga mas'ul tuzilmalarga oldiga o'z vaqtida ularning oldini olish, shuningdek mazkur turdagi jinoyatlarni sabab-sharoitlarini o'z vaqtida aniqlashva barham berish bo'yicha yangi vazifalarni qo'ymoqda¹.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki globallashtirish va vaziyat tez o'zgaruvchan sharoitda huquqbuzarliklarprofilaktikasi chora-tadbirlariga bo'lgan jamiyat ehtiyoji, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi, shuningdek Taraqqiyot strategiyasida bu sohada belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirish talablari tovlamachilik profilaktikasini takomillashtirish hamda uni raqamlashtirishni taqozo etmoqda. Shuni alohida qayd etish joizki, tadqiqotlarda tovlamachilikning sodir etilish sabablari zanjirida jinoyatchi bilan bir qatorda jabrlanuvchi shaxsiga va hayot tarziga xos individual (viktim) xususiyatlar o'rni yuqoriligini inobatga olgan holda mazkur xislatlar xos bo'lgan

¹ B.B.Murodov. Jinoyat-protsessual qonun normalarini erkinlashtirish yo'llari // Oliy yuridik o'quv yurtlarida inson huquqlari muhofazasini ta'minlovchi fanlarning o'qitishning zamonaviy muammolari. Toshkent. O'zbekiston Milliy universiteti huquqshunoslik fakulteti 2009. B. 66-69.

toifadagi shaxslar bilan viktimologik profilaktik ishlarni muntazam amalga oshirib borish zarurligi ilmiy asoslangan².

Tovlamachilik jinoyati bo'yicha dastlabki tergovning yakunlovchi bosqichida tergovchi jinoyat ishidagi dalillarni yana bir bor tekshiradi va tahlil qiladi. Tergovchi to'plangan dalillarni ayblov xulosasini tuzish uchun yetarli deb topilganidan keyin ayblanuvchi va himoyachiga dastlabki tergov tamomlanganligini e'lon qiladi, ularga ishdagi barcha materiallar bilan tanishib chiqishga doir huquqlarini tushuntiradi va tanishib chiqish uchun ishni taqdim etadi³.

Tovlamachilik jinoyatida bo'yicha jinoyat ishini yuritish tugatilgan bo'lsa, tergovchi bu haqda va ish materiallari bilan tanishish huquqi haqida gumon qilinuvchini, ayblanuvchini va himoyachini xabardor qiladi hamda ularning iltimosiga binoan ularga tanishib chiqish uchun ishni taqdim etadi. Tergovchi dastlabki tergov tamomlanganligi va ish ayblov xulosasi bilan sudga yuborilishi yoki ish tugatilganligi to'g'risida jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillariga xabar qiladi, basharti ular xohlasalar, barcha ish materiallari bilan tanishib chiqish huquqiga ega ekanliklarini tushuntiradi. So'ng tergovchi ko'rsatib o'tilgan protsess ishtirokchilarining iltimosiga muvofiq, tanishib chiqish uchun ularga ishni taqdim etadi⁴.

JPK 376-moddasida jinoyat ishidagi materiallar bilan tanishib chiqish tartibi belgilangan. Unga ko'ra, tergovchi ishdagi materiallarni tanishib chiqish uchun tikilgan va raqamlangan ko'rinishda, har bir jilddagi hujjatlarni ro'yxat qilgan tarzda taqdim etadi. Ish bilan tanishib chiqish uchun zarur bo'lgan muddat cheklanmaydi. Lekin protsess ishtirokchilari ishdagi materiallar bilan tanishishni ataylab cho'zishga urinayotgan bo'lsalar, tergovchi o'z qarorida ishdagi materiallar bilan tanishish uchun muayyan muddat belgilashga haqlidir⁵.

Ish bilan tanishib chiqayotgan shaxs undagi hujjatlardan ko'chirmalar yozib olishga haqlidir, davlat sirlarini o'z ichiga olgan ma'lumotlar bundan mustasno. Tergovchi ishdagi materiallar bilan tanishib chiqqanlik to'g'risida bayonnoma tuzadi. Jinoyat ishi materiallari bilan tanishib chiqqandan keyingi og'zaki iltimoslarni bayonnomaga kiritadi. Protsess ishtirokchisi yozma tarzda alohida iltimosnoma bersa, bu haqda bayonnomada yozib qo'yadi.

Iltimoslar qilish va ularni ko'rib chiqish tartibi JPKning 377-moddasida ko'rsatilgan. Ayblanuvchi, himoyachi, shuningdek jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillari ish bilan tanishib chiqishgach yoki biror sababga ko'ra tanishib chiqishdan bosh tortganlaridan keyin tergovchi ulardan qo'shimcha tergov harakatlarini o'tkazish yoki yangi qarorlar qabul qilish xususida iltimoslari bor yoki yo'qligini aniqlaydi.

Taraflarning arizasiga binoan iltimosnomalar tayyorlash va taqdim qilish uchun uch sutka doirasida vaqt berilishi mumkin. Tergovchi iltimosnomani to'la yoki qisman rad qilish to'g'risida qaror chiqaradi va bu haqda iltimosnoma berilgan vaqtdan boshlab uch sutka ichida arizachiga xabar beradi. Arizachi iltimosni qondirish rad qilinganligi to'g'risidagi qaror

² B.B.Murodov. Jinoyat-protsessual munosabatlarda himoyachining ishtiroki // "Advokatlik faoliyati: nazariya va amaliyot masalalari" mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. O'zR Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti. – Toshkent, 2010. B. 171-175.

³ Sh.Sh.Suyunov. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning muhim jihatlari. "Talqin va tadqiqotlar" Respublika ilmiy-uslubiy jurnali 10soni. 01.10.2022 yil B. 105-109.

⁴ N.Q.Usmanaliyev. Protsessual muddatlarning hisoblashda qo'llaniluvchi me'zonlarning ayrim jihatlari //problems and solutions of scientific and innovative research. – 2024. – T. 1. – №. 3. – S. 25-30.

⁵ Sh.Sh.Suyunov. Kompyuter texnika vositalari orqali sodir etilgan firibgarlik jinoyati turlari. "Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya" nomli Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 9.06.2023 yil

bilan tanishib chiqqanidan keyin ikki sutka ichida prokurorga rad etilganlik ustidan shikoyat qilishi mumkin.

Tergovchi iltimos qondirilgandan keyin, u kim tomonidan va kimlarning manfaatlari yo'lida bildirilgan bo'lishidan qat'i nazar, ayblanuvchi, himoyachiga, shuningdek jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillariga ishdagi barcha materiallar bilan yana tanishib chiqish imkoniyatini beradi (JPK 378-modda).

Shu bilan tergovchining tovlamachilik jinoyati yuzasidan dastlabki tergovni yuritishda kattagina bosqichni tashkil etuvchi harakatlari nihoyasiga yetadi. Agar tergovchi ushbu jinoyat ishi bo'yicha harakatlarning barchasini amalga oshirib, tergovning to'liq va xolis ekanligi, jinoyat ishini sudga yuborish uchun yetarliligi haqida xulosaga kelsa, u ish bo'yicha dastlabki tergov natijalari qayd etiladigan yakunlovchi protsessual hujjat bo'lmish ayblov xulosasi tuzadi.

Ayblov xulosasi – dastlabki tergovni yakunlovchi va uning natijalarini ifodalovchi protsessual hujjat bo'lib, uning asosida jinoyat ishi sudga yuborilishi kerak. Ayblov xulosasida tergovchi kelgan xulosalar, taqdim etilishi lozim bo'lgan dalillar tahlili ayblanuvchining ayblov va oqlov maqsadida keltirilgan asoslari hamda ayblovning yuridik kvalifikatsiyasi keltiriladi.

Ushbu muhim tergov hujjatida tergovchi o'tkazilgan butun tergov natijasida shakllangan o'zining ayblanuvchining aybdorligiga bo'lgan ishonchini aks ettiradi. Bunda u ayblov ish bo'yicha to'plangan dalillar bilan tasdiqlanganligini, ayblanuvchining unga qo'yilgan ayb bo'yicha keltirgan asoslari va e'tirozlari ishonarli chiqmaganligi, ayblovni rad eta olmaganligini bayon etadi⁶.

Ayblov xulosasini tergovchi tuzadi, ammo ushbu hujjat uni prokuror tasdiqlaganidan keyingina yuridik kuchga kiradi. Ayblov xulosasi muhim yuridik (protsessual-huquqiy), siyosiy va texnikaviy ahamiyat kasb etadi. Uning yuridik ahamiyati shundaki, ayblov xulosasi tergovning yakuniy bosqichidagi protsessual vosita hisoblanadi. Tergovchi ayblov xulosasini tuzayotganida ishning barcha materiallarini ularning har tomonlamaligi, to'liqligi va xolisligi nuqtai nazaridan yana bir bor tekshiradi va baholaydi.

Ayblov xulosasining yuridik ahamiyati yana shundaki, u prokuror va sud (sudya) o'zlariga berilgan vakolat doirasida qaror chiqarishlari uchun asos hisoblanadi. Prokurorga ayblov xulosasi – ishni sudga yuborish, sudyaga esa – uni sudga ko'rib chiqish uchun tayinlash haqida qaror chiqarish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Sud ayblovni asoslangan deb topgach, ishni sud majlisida faqat ayblov xulosasida qayd etilgan shaxslarga nisbatan va dastlabki tergovda ularga qo'yilgan ayb nuqtai nazaridagina ko'rib chiqishi shart.

Ayblov xulosasining protsessual-huquqiy ahamiyati shundan iboratki, u ish bo'yicha sud muhokamasining doirasini belgilab beradi. Sud agarda sud muhokamasi davomida sudlanuvchi uchun og'irroq jazoga olib kelishi mumkin bo'lgan holatlarni aniqlasa, ayblov xulosasida keltirilgan ayblov ifodasini va yuridik kvalifikatsiyasini o'zgartirishga haqli emas. Bunday holatda sud ayblovni o'zgartirish va qayta ayb e'lon qilish uchun ishni qo'shimcha tergovga qaytaradi, shundan so'ng sud muhokamasining doirasini belgilovchi yangi ayblov xulosasi tuzilishi lozim.

Tovlamachilik jinoyati bo'yicha ayblov xulosasining ahamiyati uning ayblanuvchining himoyalaniş huquqining protsessual kafolati ekanligida ham o'z ifodasini topadi.

⁶ Sh.Sh.Suyunov. Some aspects of qualifying drug-related crimes. Koreya Respublikasining "Digital Fashion Conference" jurnali 5.10.2022 y B. 13-15

Ayblanuvchi o'ziga berilgan ayblov xulosasi mazmuni bilan tanishib chiqqach, sud muhokamasida ishtirok etishga avvaldan tayyorgarlik ko'rishi, qanday himoyalaniшни o'ylab ko'rishi, qanday iltimoslar qilishni mo'ljallab qo'yishi mumkin. Ayblov xulosasining siyosiy ahamiyati shundaki, sud tergov boshlanishi bilan e'lon qilinadigan ushbu xulosa sud majlisi zalida hozir bo'lganlarni muhokama qilinayotgan ishning mohiyati bilan tanishtiradi. Qonuniy tarzda to'plangan dalillarga asoslangan ayblov xulosasi fuqarolarni jinoyatlarga va ularni sodir etgan shaxslarga nisbatan murossasizlik ruhida tarbiyalashga yordam beradi, jinoyatlarga qarshi kurash olib boruvchi organlarning obro'sini oshiradi.

Ayrim xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligi bilan O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligi solishtirib ko'rilganda, tovlamachilik jinoyati bo'yicha bir qator o'xshashliklar va farqlar borligini ko'rish mumkin. Tovlamachilik jinoyati uchun javobgarlik muddatlarida ham bu o'xshashlik va farqlar ko'zga tashlanadi. Jumladan: Armaniston davlati Jinoyat Kodeksining 182-moddasiga ko'ra, ushbu moddaning 1-qismi uchun 2 yildan ko'p bo'lmagan muddatga ahloq tuzatish ishlari, 3 oydan ko'p bo'lmagan qamoq jazosi, 4 yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish hamda eng kam oylik ish haqining 50 barobaridan ko'p bo'lmagan miqdorda jarima jazosi belgilangan. Og'irlashtirilgan holatda, ya'ni 2-qism uchun 3 yildan 7 yilgacha bo'lgan muddatga ozodlikdan mahrum qilish, 3-qism uchun esa 6 yildan 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilab qo'yilgan. Ko'rinib turibdiki, Armaniston jinoyat qonunchiligida tovlamachilik jinoyatining ijtimoiy xafilik darajasi O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligiga belgilangan tovlamachilik jinoyatiga nisbatan yengilroq.

Belarusiya davlati Jinoyat Kodeksining 208-moddasiga ko'ra, ushbu moddaning 1-qismi uchun 2 yilgacha bo'lgan muddatga ahloq tuzatish ishlari, 5 yilgacha bo'lgan muddatga qamoq, ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilangan. Og'irlashtirilgan holatda, ya'ni 2-qism uchun 3 yildan 10 yilgacha bo'lgan muddatga ozodlikdan mahrum qilish, 3-qism uchun esa 5 yildan 15 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilab qo'yilgan.

Ukraina davlatining jinoyat qonunchiligi o'rganilganda, o'ziga xos bir jihatni ko'rish mumkin. Ukraina davlati Jinoyat Kodeksining 189-moddasida tovlamachilik jinoyati keltirib o'tilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi JK 165-moddasida ko'rsatilgan tovlamachilik jinoyatidan asosiy farqi, ushbu moddaning 1-qismi dispozitsiyasida shaxsning huquqlarini va ozodligini cheklaganlik holati ham ko'rsatib o'tilgan. O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligiga ko'ra esa, agar jinoyatchi shaxsni garov sifatida ushlab turgan bo'lsayu, uning harakatlarida tovlamachilik jinoyati alomatlari bo'lsa, Oliy Sud Plenumining qarorga ko'ra uning harakatlarini O'zbekiston Respublikasi JKning 245-moddasi bilan emas, balkim 165-moddasi bilan kvalifikatsiya qilish ko'rsatib o'tilgan. Lekin O'zbekiston Respublikasi JKning 165-moddasi qismlarida garovga olganlik holati belgilab qo'yilmagan. Ukraina davlati JKning 189-moddasi 1-qismiga ko'ra tovlamachilik jinoyati uchun 5 yilgacha bo'lgan muddatga ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish jazolari, 2-qism uchun 3 yildan 7 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi, 3-qism uchun 5 yildan 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi, 4-qism uchun esa 7 yildan 12 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilab qo'yilgan.

Germaniya Federativ Respublikasi Jinoyat Kodeksida esa tovlamachilik va bosqinchilik uchun alohida 20-bob mavjud. Unga ko'ra, tovlamachilikning 2 xil ko'rinishi mavjud bo'lib, 253 va 255-moddalar bilan jinoiy javobgarlik belgilangan. 253-moddasiga ko'ra tovlamachilik uchun 5 yilgacha bo'lgan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilangan. GFR JKda bosqinchilik ko'rinishidagi tovlamachilik uchun alohida 255-modda mavjud bo'lib, unga ko'ra,

agar tovlamachilik inson hayoti va sog'lig'iga zarar yetkazadigan kuch ishlatish yo'li bilan sodir etilgan bo'lsa, uning harakatlari bosqinchilik jinoyatini sodir qilgan shaxs kabi baholanadi⁷.

Ozarbayjon davlat Jinoyat Kodeksining 182-moddasiga ko'ra, ushbu moddaning 1-qismi uchun 3 yildan 5 yilgacha bo'lgan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilangan. Og'irlashtirilgan holatda, ya'ni 2-qism uchun 5 yildan 10 yilgacha bo'lgan muddatga ozodlikdan mahrum qilish, 3-qism uchun esa 10 yildan 15 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilab qo'yilgan.

Yuqorida o'rganilgan ayrim xorijiy mamlakatlar tajribasini tahlil qilish orqali, shuni ko'rish mumkinki, bizning jinoyat qonunchiligimizda bir qator muammo va kamchiliklar mavjud.

Ukraina davlati jinoyat qonunchiligi o'rganib ko'rilganda, Ukraina davlati Jinoyat kodeksining 189-moddasi 1-qismi dispozitsiyasida shaxsni huquqlarini yoki ozodligini cheklash yo'li bilan tovlamachilik jinoyatini sodir etish ko'rsatib o'tilgan. Yuqoridagi muammo yuzazidan, O'zbekiston Respublikasi JKning 165-moddasi 2-qismiga "shaxsni garov sifatida tutqunlikka olgan holda" degan bandni kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi⁸.

Tovlamachilik jinoyati uchun javobgarlik jabrlanuvchi yoki uning yaqin kishilariga zo'rlik ishlatish, mulkka shikast yetkazish yoki uni nobud qilish yoxud jabrlanuvchi uchun sir saqlanishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni oshkor qilish bilan qo'rqitib o'zgedan mulkni yoki mulkiy huquqni topshirishni, mulkiy manfaatlar berishni yoxud mulkiy yo'sindagi harakatlar sodir etishni talab qilish yoxud jabrlanuvchini o'z mulki yoki mulkka bo'lgan huquqini berishga majbur qiladigan sharoitga solib qo'yganda vujudga keladi. Agar qo'rqitish amalda ishlatilgan bo'lsa, ayblanuvchining harakatlari O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1999 yil 30 apreldagi «O'zgarlar mulkini o'g'rilik, talonchilik va bosqinchilik bilan talon-toroj qilish jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida»gi 6-sonli qarori 4-bandida ko'ra, asoslar bo'lgan taqdirda qo'rqitish amalda ishlatilgan vaqtdagi harakatlar uchun javobgarlikni belgilovchi moddalar bilan ham tavsiflanishi ko'rsatib o'tilgan. Bu esa, tovlamachilik jinoyatini kvalifikatsiya qilishda o'ziga xos qiyinchiliklar yaratadi⁹.

Mazkur holatda Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston davlatlari jinoyat qonunchiligi tahlil qilinganda, ushbu davlatlarning jinoyat qonunchiligida tovlamachilik jinoyati uchun javobgarlikni belgilovchi moddalarining 2-qismi "a" bandida kuch ishlatish yo'li bilan, 3-qismi "a" bandida esa og'ir tan jarohati yetkazgan holda tovlamachilik jinoyatini sodir qilganlik uchun javobgarlik belgilangan. O'zbekiston Respublikasi JKning 165-moddasi 2-qismiga "zo'rlik ishlatgan holda sodir etilgan bo'lsa", 3-qismiga esa "badanga og'ir shikast yetkazgan holda sodir etilgan bo'lsa" deb nomlangan bandlarni qo'shish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz¹⁰.

⁷ A.Y.Abdullaev. Guvoh va jabrlanuvchini so'roq qilishning taktik jihatlari. Yevraziyskiy jurnal prava, finansov i prikladnykh. 2022 g.

⁸ A.T.Ashirboev. Ayblanuvchining qayerda ekanligi noma'lum bo'lgan hollarda jinoyat ishini to'xtatishning nazariy va amaliy jihatlari. Jamiyat va innovatsiyalar № 1 (2024).– 2024. – 314-320 b.

⁹ N.A. Xushvaktova. Oilada sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonlikka uchragan xotin-qizlarni himoya qilish chora-tadbirlari // Zamonaviy fan va ta'lim ilmiy yangiliklari Vol. 2 №2 (2024) ISSN 3030-3044 Researchbib Impact Faktor:7.9 B. 81-86.

¹⁰ Sh.S.Agoyev., Tashev U. Ekspertiza faoliyatining armaniston respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligidagi huquqiy asoslari //Razvitie i innovatsii v nauke. – 2024. – T. 3. – №. 6. – S. 48-56.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 25.01.2020 yildagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // [Elektron manba].
3. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi. –T., 2009. – B. 199.
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T.4. –T., 2002. – B. 47.
5. *B.B.Murodov*. Jinoyat-protsessual qonun normalarini erkinlashtirish yo'llari // Oliy yuridik o'quv yurtlarida inson huquqlari muhofazasini ta'minlovchi fanlarning o'qitishning zamonaviy muammolari. Toshkent. O'zbekiston Milliy universiteti huquqshunoslik fakulteti 2009. B. 66-69.
6. *B.B.Murodov*. Jinoyat-protsessual munosabatlarda himoyachining ishtiroki // "Advokatlik faoliyati: nazariya va amaliyot masalalari" mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. O'zR Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti. – Toshkent, 2010. B. 171-175.
7. *B.B.Murodov*. Xususiy ayblov institutini qo'llash samaradorligini oshirish yo'llari // Xususiy ayblov va yarashuv institutlarini takomillashtirish choralari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. T:O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015y.B. 34-40.
8. *B.B.Murodov*. "Jinoyatlarni tergov qilish metodikasi" fanidan o'quv dasturi. T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. B.24
9. *Sh.Sh.Suyunov*. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning muhim jihatlari. "Talqin va tadqiqotlar" Respublika ilmiy-uslubiy jurnali 10soni. 01.10.2022 yil B. 105-109.
10. *Sh.Sh.Suyunov*. Kompyuter texnika vositalari orqali sodir etilgan firibgarlik jinoyati turlari. "Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya" nomli Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 9.06.2023 yil
11. *Sh.Sh.Suyunov*. Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish tergov xarakatining jinoyat sodir etgan shaxslarni aniqlash xamda ularning aybini isbotlashdagi ahamiyati. "Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya" nomli Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi.
12. *Sh.Sh.Suyunov*. Giyohvandlik vositalarini, ularning analoglarini yoki psixotrop moddalarini sotish maqsadisiz noqonuniy ishlab chiqarish, olish, saqlash, jinoyati tushunchasi // Jamiyat va innovatsiya. – 2025. – V. 6. – No 1/S. – B. 267-277.
13. *A.T.Ashirboyev*. Ayblanuvchining qayerda ekanligi noma'lum bo'lgan hollarda jinoyat ishini to'xtatishning nazariy va amaliy jihatlari. Jamiyat va innovatsiyalar № 1 (2024).– 2024. – 314-320 b.
14. *A.T.Ashirboyev*. Jinoyat ishini to'xtatish tushunchasi va ahamiyati. Eksmertkriminalistik faoliyat: istiqbollari va innovatsiyalar mavzusidagi xalqaro konferensiya materillari to'plami. T., O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi, 2023. – B. 381-388.
15. *A.T.Ashirboyev*. Ayblanuvchining ishtirokini ta'minlash imkoni bo'lmagan taqdirda dastlabki tergovni to'xtatish: Nazariya va amaliyot. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining Axborotnomasi № 1 (2024).– 2024. 95-98 b.
16. *A.T.Ashirboyev*. Curishtiruv va dastlabki tergovni to'xtatish instituti: xalqaro tajriba va o'zbekiston qonunchiligini takomillashtirish istiqbollari //Общественные науки v

sovremennom mire: teoreticheskie i prakticheskie issledovaniya. – 2024. – T. 3. – №. 14. – S. 37-42.

17. *N.Q.Usmanaliyev. "Oqilona muddat" tamoiyilini joriy etish nazariy va amaliy jihatlari //Nauka i innovatsii v sisteme obrazovaniya. – 2025. – T. 4. – №. 3. – S. 44-50.*

18. *N.Q.Usmanaliyev. Jinoyat ishini yuritishni to'xtatish va tiklash muddatlari bilan bog'liq ayrim mulohazalar //Teoreticheskie aspekty stanovleniya pedagogicheskix nauk. – 2025. – T. 4. – №. 6. – S. 40-47.*

19. *N.Q.Usmanaliyev. Protsessual muddatlarning hisoblashda qo'llaniluvchi me'zonlarning ayrim jihatlari //problems and solutions of scientific and innovative research. – 2024. – T. 1. – №. 3. – S. 25-30.*

20. *N.Q.Usmanaliyev. Baynazov J. O'g'irlik jinoyati bo'yicha hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish tergov harakatining yangi usullari //Nauka i innovatsii v sisteme obrazovaniya. – 2024. – T. 3. – №. 8. – S. 69-74.*

21. *Sh.S.Agoyev., Shakirova S. Qiynash jinoyatini tergov qilish: nazariya va amaliyot //Razvitie i innovatsii v nauke. –2024. – T. 3. – №. 6. – S. 75-81.*

22. *Sh.S.Agoyev., Abduxamidov A. Guvoxlantirish tergov xarakatini o'tkazishning ahamiyati //Общественные науки v sovremennom mire: teoreticheskie i prakticheskie issledovaniya. – 2024. – T. 3. – №. 7. – S. 49-51.*

23. *Sh.S.Agoyev., Asatullaev D. Axborot texnologiyalari sohasidagi o'g'irlik jinoyatlarni tergov qilishning o'ziga xos xususiyatlari //Общественные науки v sovremennom mire: teoreticheskie i prakticheskie issledovaniya. – 2024. – T. 3. – №. 7. – S. 31-35.*

24. *Sh.S.Agoyev., Tashev U. Ekspertiza faoliyatining armaniston respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligidagi huquqiy asoslari //Razvitie i innovatsii v nauke. – 2024. – T. 3. – №. 6. – S. 48-56.*

25. *N.A. Xushvaktova. Ishni sudga qadar yuritishda ishtirok etuvchi jamoatchilikning tasnifi // Jamiyat va innovatsiyalar №6 (2024) / ISSN 2181-1415 B. 22-28.*

26. *N.A. Xushvaktova. Oilada sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonlikka uchragan xotin-qizlarni himoya qilish chora-tadbirlari // Zamonaviy fan va ta'lim ilmiy yangiliklari Vol. 2 №2 (2024) ISSN 3030-3044 Researchbib Impact Faktor:7.9 B. 81-86.*